



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2536-3
2026 - yil 15 - Iyun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki [to'g'risida](#)"gi hamda "Valyutani tartibga solish [to'g'risida](#)"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PF-254-son "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [Farmoniga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 23-noyabrda 22/2-son qarori (ro'yxat raqami 2536, 2013-yil 17-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 51-son, 670-modda) bilan tasdiqlangan Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Raisi
02-Iyun 2026-yil
15/1 son



ISHMETOV TIMUR AMINDJANOVICH

Kelishildi:

Direktor
26-Mart 2026-yil



LI DMITRIY ROMANOVICH

**Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi
to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.”.

2. 1-3-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kapital harakati operatsiyalari – joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha xalqaro (transchegaraviy) valyuta operatsiyalari, jumladan:

investitsiya faoliyatini amalga oshirish, jumladan rezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan o'z filiallarini aylanma mablag'lar bilan to'ldirish;

kreditlar (qarzlarni) olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

ko'chmas mol-mulkni sotib olish va sotish;

chet davlatlardan mablag'larni jalb etish hamda ularni chet davlatlardagi hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish;

intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqni to'liq olish yoki sotish;

xorijdan mablag' jalb qilish – O'zbekiston Respublikasi yoki uning rezidenti tomonidan xorijiy davlatlar yoki norezidentlar aktivlarining (kreditlar, zayomlar va boshqalarning) mazkur xorijiy davlatga yoki norezidentga yoxud ularning talabiga ko'ra uchinchi shaxsga shartlashilgan davrda adekvat aktivlarni, jumladan aktivlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda jalb etilishi.

2. Banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) “Valyuta operatsiyalari hisobini yuritish” axborot tizimi (FERUz) (bundan buyon matnda tizim deb yuritiladi) orqali kapital harakati operatsiyalari hisobini yuritadi.

3. Kapital harakati operatsiyalari Markaziy bankda ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish banklar tomonidan mazkur operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimga kiritish tartibida amalga oshiriladi. Ma'lumotlar tizimga kiritilgandan so'ng kapital harakati operatsiyalari ro'yxatga olingan hisoblanadi.”.

3.6¹-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6¹. Rezidentlar tomonidan chet elga quyidagi kapital harakati operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat etiladi:

bir kalendar yil davomida ustav kapitalida davlat ulushi mavjud korxonalar va ularning shu'ba tashkilotlari tomonidan 100 000 AQSh dollari, davlat ulushi mavjud bo'lmagan korxonalar tomonidan 200 000 AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lmagan summada chet elda investitsiya faoliyatini amalga

o'shish – chet eldagi korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish yoki ulushli ishtirok etish, chet elda filiallar, vakolatxonalar va savdo uylari faoliyatini tashkil etish;

bir kalendar yil davomida ustav kapitalida davlat ulushi mavjud korxonalar va ularning shu'ba tashkilotlari tomonidan 50 000 AQSh dollari, davlat ulushi mavjud bo'lmagan korxonalar tomonidan 100 000 AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lmagan summada chet eldagi o'z filiallari va vakolatxonalarini aylanma mablag'lar bilan to'ldirish;

bir kalendar yil davomida jismoniy shaxslar tomonidan 10 000 AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lmagan summada chet elda investitsiya faoliyatini amalga oshirish – chet eldagi korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish yoki ulushli ishtirok etish.

Bunda, jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasida investitsiya vositachilarining hisobvaraqlarini to'ldirish imkoniyati bilan chet eldagi brokerlik yoki investitsiya hisobvaraqlarini to'ldirish uchun pul mablag'larini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PF–254-son “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq faqat tegishli litsenziyaga ega bo'lgan investitsiya vositachilari ishtirokida amalga oshiriladi.

AQShdagi xorijiy korxonalarining ustav fondini shakllantirish (yoki kapitalda ishtirok etish) uchun investitsiya faoliyati bo'yicha rezidentlar operatsiyalari – O'zbekiston Respublikasi banklaridagi rezidentlar hisobvaraqlaridan pul mablag'larini o'tkazish, AQShdagi filiallarini aylanma mablag'lar bilan to'ldirish rezidentlar hisobvaraqlaridagi valyuta mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

Banklarning faoliyati bilan bog'liq kapital harakati operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi va “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonunlari hamda Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablar doirasida amalga oshiriladi.

Rezidentlar tomonidan mazkur badda nazarda tutilmagan yoki belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lgan miqdorda chet elga kapital harakati operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida amalga oshiriladi, bundan chet eldan jalb qilingan aktivlarni norezidentlarga qaytarish bilan bog'liq kapital harakati operatsiyalari mustasno.”.

4. 7-12-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Kapital harakati operatsiyasini amalga oshirish uchun rezident tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza;

kapital harakati operatsiyasi amalga oshirilishini nazarda tutuvchi hujjatning (shartnoma, kelishuv, bitim va (yoki) boshqa hujjat) hamda unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning nusxalari. Bunda hujjat matni davlat yoki rus tilida bayon etilgan bo'lishi, agar hujjat matni boshqa tilda bayon etilgan bo'lsa, u legallashtirilgan yoki unga belgilangan tartibda apostil qo'yilgan bo'lishi hamda davlat yoki rus tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Banklar mazkur hujjatlar taqdim etilgandan keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda ular to'g'risidagi mazkur Nizomning 11-bandida qayd etilgan ma'lumotlarning tizimga kiritilishini ta'minlaydi. Ma'lumotlar tizimga kiritilib, ro'yxatga olingandan so'ng belgilangan tartibda kapital harakati operatsiyasi amalga oshiriladi.

Kapital harakati operatsiyalari ro'yxatga olingandan so'ng rezidentlar tomonidan har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25 sanasiga qadar o'zining xizmat ko'rsatuvchi bankiga chet eldagi

investitsiya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etiladi.

Bunda, mijozlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar banklar tomonidan umumlashtirilgan holda hisobot choragidan keyingi oy yakuniga qadar Markaziy bankka taqdim etilishi lozim.

Rezidentlar tomonidan chet eldagi investitsiya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilmagan taqdirda, ularning ushbu turdagi keyingi operatsiyalari to'xtatib turiladi.

8. Rezidentlar hujjatlarni elektron tizim orqali qabul qilish uchun dasturiy ta'minotga ega bo'lgan banklarga arizani elektron shaklda taqdim etishi mumkin. Bunda rezident kapital harakati operatsiyasi amalga oshirilishini nazarda tutuvchi hujjatning (shartnoma, kelishuv, bitim va (yoki) boshqa hujjat) yoki unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning nusxalarini arizaga ilova qilishi lozim.

9. Kapital harakati operatsiyasi shartlariga har qanday o'zgartirishlar qo'shimcha kelishuv (kapital harakati operatsiyasi amalga oshirilishini nazarda tutuvchi hujjatga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar) bilan rasmiylashtirilishi va rezidentlar tomonidan qo'shimcha kelishuv tuzilgan sanadan boshlab o'n kun muddatda banklarga taqdim etilishi lozim.

Qo'shimcha kelishuvlarni banklarga taqdim etish hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimga kiritish mazkur Nizomning 7-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10. Banklar kapital harakati operatsiyalarini amalga oshirishda mazkur Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'ri va o'z vaqtida tizimga kiritilishi hamda ular bo'yicha hisob-kitob va to'lovlarning shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashlari shart.

11. Bank tomonidan tizimga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

hujjat ijroga qabul qilingan sana;

hujjatning raqami va sanasi;

rezident yuridik shaxsning nomi, STIR, faoliyat turi va joylashgan hududi;

rezident jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, JShShIR va yashash manzili;

norezident to'g'risidagi ma'lumotlar (nomi, yuridik shaxs ro'yxatga olingan davlat yoki jismoniy shaxsning fuqaroligi, yurisdiksiya bo'yicha identifikatsiya raqami);

kapital harakati operatsiyasining turi, summasi va valyutasi;

xorijdan mablag' jalb qilish shakli (pul mablag'lari, tovarlar, ish va xizmatlar ko'rinishidagi zayomlar);

kapital harakati operatsiyasining muddati va foizlari (qarz, depozit va boshqa muddatli operatsiyalarda);

xorijdan jalb qilingan yoki taqdim etilgan mablag'larni qaytarish grafigi (mavjud bo'lsa);

mablag'lar harakati to'g'risidagi axborot;

kapital harakati operatsiyasi hisobining yuritilishi tugallangan sana (boshqa bankka o'tkazilgan yoki yakunlangan).

Kapital harakati operatsiyasining identifikatsiya raqami tizimda avtomatik tarzda shakllanadi.

Ma'lumotlar tizimga kiritilgandan so'ng bank boshqaruvi raisining tegishli o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Tizimga kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun uni tasdiqlagan bank boshqaruvi raisining tegishli o'rinbosari javobgar hisoblanadi.

12. Rezidentning hisobvarag'i boshqa bankka o'tkazilgan taqdirda, keyingi valyuta operatsiyalarining hisobi rezidentning hisobvarag'i o'tkazilgan bank tomonidan yuritiladi.

Kapital harakati bilan bog'liq shartnomalarni boshqa bankka o'tkazish mazkur Nizomning 3- ilovasiga muvofiq shaklda tuziladigan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.”.

5. 1-ilovaning matnidagi “tijorat bankining” degan so'zlar “bankning” degan so'z bilan almashtirilsin.

6. 2-ilova mazkur o'zgartirishlarning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon qilinsin.

Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini
amalga oshirish tartibi iyundagi nizomga kiritilayotgan
o'zgartirishlarga
ILOVA

“Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining chet eldagi investitsiya faoliyati to'g'risida
MA'LUMOT**

___ - yilning ___ - choragi uchun

Shartnoma unikal raqami*	Investitsiya turi (1. Ustav fondini shakllantirish/ ulushli ishtirok etish; 2. Savdo uyi/vakolatxona/filial tashkil etish; 3. Boshqa turdagi faoliyat (ko'rsatilsin)	Rezident to'g'risida ma'lumot					Norezident to'g'risida ma'lumot						
		Jism. shaxs /Yur. shaxs	JShShIR/STIR raqami	Davlat ulushi mavjudligi (bor/yo'q)	Nomi	Xizmat ko'rsatuvchi bank nomi	Xorijiy mamlakatdagi identifikatsiya raqami (TIN, VATIN, LEI va boshqalar)	Qimmatli qog'ozlarning identifikatsiya qilish kodi (ISIN)	Xorijiy hamkor ro'yxatdan o'tgan davlat nomi	Xorijiy hamkor ro'yxatdan o'tgan davlat nomi	Xorijiy bank joylashgan davlat nomi	Xorijiy bank joylashgan davlat nomi	Joriy holati (faol, tugatilgan, bankrot deb e'lon qilingan va boshqalar)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14

Jadvalning davomi

Valyuta kodi	Investitsiya qiymati va amaliyotlar						Filiallar va vakolatxonalarni aylanma mablag'lar bilan to'ldirish	Ta'sischi aksioner kapitaldagi ulushi		Norezident korxonaning moliyaviy hisoboti (Sof foyda+ / zarar-)		Olingan dividend to'lovlari	Izoh***	
	Hisobot davri boshida investitsiya qiymati	Investitsiya kiritish		Investitsiya repatriatsiyasi (dividendlardan tashqari)	Investitsiya qiymatining o'zgarishi			Hisobot davri oxirida investitsiya qiymati	Hisobot davri boshida (foizda)	Hisobot davri oxirida (foizda)	Hisobot davri boshida (ekv. doll.)			Hisobot davri oxirida (ekv. doll.)
		O'zbekistondagi hisobvaraqdan	Dividendlar kapitalizatsiyasi		bozor qiymatining o'zgarishi hisobiga**	boshqa o'zgarishlar hisobiga								
15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Valyuta operatsiyalari hisobini yuritish" axborot tizimi (FERUz) birlashtirilgan identifikatsiya raqami shartnoma ro'yxatga olingandan so'ng bank tomonidan mijozga taqdim qilinadi.

**Qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarning bozor qiymatining o'zgarishi ko'rsatiladi.

***Boshqa o'zgarishlar hisobiga investitsiya qiymatining o'zgarishi sabablari va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. ”.